

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL INTEGRASIYALASHGAN DARSLARDA DASTURIY TA’MINOTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Babayeva Maxfuza Abduvaitovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dosenti v.b.(PhD)

Jumayeva Pardaxol

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi

e-mail: maxfuza_babayeva@tues.uz

Annotasiya. So‘nggi yillarda ishtirokchilarga aniq bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash bilan birga ularni turli hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish talabi qo‘yilmoqda. Ushbu maqsadni integrasiyalashgan darslar va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda amalga oshirish mumkin. Integrasiyalashgan darslar samaradorlikni oshirishga yordam beradi, darsni nostandart qiladi.

Аннотация. В последние годы участникам задается требование не только овладевать конкретными знаниями, навыками и умениями, но и уметь применять их в различных жизненных ситуациях. Эту цель можно реализовать на интегрированных уроках и во внеклассной деятельности. Интегрированные уроки помогают повысить эффективность, делают урок нестандартным.

Abstract. In recent years, participants have been required not only to acquire specific knowledge, skills, and abilities, but also to be able to apply them in various life situations. This goal can be achieved through integrated lessons and extracurricular activities. Integrated lessons help to increase efficiency and make lessons more innovative.

Kalit so‘zlar: integrasiya, dars, dasturiy ta‘minot, elektron o‘quv qo‘llanma, ta‘lim, axborot, fan.

Ключевые слова: интеграция, урок, программное обеспечение, электронное учебное пособие, образование, информация, наука.

Keywords: integration, lesson, software, electronic textbook, education, information, science.

Ta‘lim insonning hayoti davomidagi eng murakkab, zaruriy faoliyatdir. Ta‘limning maqsadi muayyan axborotlar, harakatlar, o‘rganilgan bilim ko‘nikma va malakalarni hayotiy faoliyatda qo‘llash layoqati, xulq-atvor shakllarini o‘zlashtirishga qaratilgan. Ta‘limning tarkibiy qismlari – faoliyatning

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

biror turini muvaffaqiyatli egallash uchun zarur bo‘lgan axborotlarning o‘zlashtirilishi (bilim), qo‘yilgan maqsadga muvofiq keladigan usullarni to‘g‘ri tanlash uchun ko‘rsatilgan axborotdan to‘g‘ri foydalanish (ko‘nikma), notanish vaziyatlarda barcha turlarni tarkib topadigan usullar va jarayonlarning o‘zlashtirilishi (malaka) bo‘lib, o‘quv jarayonida fanga tegishli bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash bilan birga, kompetensiyalarni ham shakllantirishi muhim. Ushbu maqsadni integratsiyalashgan darslar va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda amalga oshirish mumkin. Bunday darslarni ishlab chiqish juda mashaqqatli ish, ammo natijasi juda yuqori. Integratsiyalashgan darslar quyidagi yo‘nalishlarda tashkil etiladi: ko‘p predmetlilik – bunda (ikki yoki undan ortiq) fundamental fanlarni qiyoslash; chegara fanlar asosida – yangi fanlarni vujudga keltirish, buning asosida yangi tabiiy hamda ilmiy fanlar vujudga keladi; asosiy (o‘zak) fanlar – zamonaviy bilimlarning hamma tarmoqlariga singib ketuvchi fanlar va umumiy ilmiy tushunchalar, qoidalar va nazariyalardir ;

Bunday darslarni elektron ta’lim resurslari asosida tashkil etish muhim sanaladi. Zamonaviy elektron resurslar hamda o‘qish, mustaqil ta’lim olish va olingan bilimlarni tekshirish uchun maxsus dasturlar birgalikda «Elektron ta’lim resurslari» deb ataladi. Elektron ta’lim resurslari deganda, foydalanuvchi, ya’ni o‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda avtomatik rostlanish imkonini beruvchi, egallangan bilimni avtomatik nazorat qilish tizimi bilan birlashgan o‘quv materiallarini uzatish tizimi tushuniladi [1].

Barcha murakkab tizimlarni yaratishdagi kabi elektron o‘quv qo‘llanmalarni tayyorlashda ham ishning muvaffaqiyati muallifning qobiliyatiga bog‘liq xisoblanadi. Shunga qaramay, elektron o‘quv qo‘llanma tayyorlash uchun o‘quv qo‘llanma asosini tashkil etuvchi elementlar mavjud. Ular quyidagilar:

Test. Tashqi ko‘rinishda bu elektron o‘quv qo‘llanmaning oddiy shakli. Asosiy qiyinchilikni savollarni tanlash va aniq ifodalash, shuningdek savollarga javoblarni izohlash tashkil etadi. Shuningdek yaxshi test ma’lum fan sohasi bo‘yicha talabalardagi bilim, mahorat va ko‘nikmalar haqida ob’ektiv xulosa qilish imkonini beradi. Bu esa bilim cho‘qqilariga erishish uchun optimal yo‘lni tanlash imkonini beradi.



“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

Ensiklopediya. Bu elektron o‘quv qo‘llanmaning asosiy shakli. Ma’no jihatidan ensiklopediya atamasi elektron o‘quv qo‘llanmada to‘plangan ma’lumot to‘liq va ta’lim standartlarga nisbatdan ortig‘i bilan bo‘lishi kerakligini bildiradi. Chunki u barcha foydalanuvchilarni qanoatlantirishi kerak.

Masalalar to‘plami. Bu elektron o‘quv qo‘llanmaning muhim shakllaridan biri. Elektron o‘quv qo‘llanmada masalalar to‘plami o‘qitish vazifasini hammadan ko‘ra ko‘proq amalga oshiradi. Elektron masalalar to‘plamida yordam tizimi mukammal bo‘lishi kerak. Foydalanuvchilar muayyan masalani yechish uchun kerakli o‘quv-ta’limga oid malumot oladilar. Asosiy muammo butun nazariy ma’lumotlarni qamrab oluvchi masalani tanlashda bo‘ladi.

Ijodiy muhit. Zamonaviy elektron o‘quv qo‘llanmalar talabalarni o‘rganilayotgan ob’ektlar va o‘zaro bog‘liq ob’ektlar sistemasi modellari bilan ijodiy ishlashlarini ta’minlashi kerak. Aynan o‘qituvchi tomonidan ifodalangan ijodiy ish talabalarda bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlashga, shakllantirishga yordam beradi. Dasturchi nuqtai nazaridan ijodiy muhit elektron o‘quv qo‘llanmaning eng murakkab qismlaridan biri hisoblanadi. Ijodiy muhit talabalarni loyiha ustida jamoa bo‘lib ishlashini ta’minlaydi.

Mualliflik muhiti. Elektron o‘quv qo‘llanma o‘qitish jarayoniga moslasha oladigan bo‘lishi kerak. Ya’ni, muayyan bir o‘quv sohasini, muayyan yo‘nalishni va muayyan talabaning xususiyatlarini hisobga olishi kerak. Bu esa o‘quv materiallarining ortiqchaligi bilan taminlanadi. Ammo tajriba shuni ko‘rsatadiki, ijodiy faol o‘qituvchilar elektron o‘quv qo‘llanmaning materiallarini o‘zlari shakllantirishni xoxlashadi. Buning uchun mos mualliflik muhiti kerak bo‘ladi. Bunday muhit, masalan, qo‘shimcha materiallarni elektron ensiklopediyaga kiritishni ta’minlaydi, masalalar to‘plamini toldirish, tarqatma materiallar va fan bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar tayyorlash imkonini beradi [2].

Dars davomida dasturiy ta’minotdan foydalanish orqali maqsadga erishish osonlashadi. Bunda yaratilgan dasturiy ta’minot suratli matnga va ma’lumotnomaga aylanib qolmasligi kerak. Dasturiy ta’minot eng muhim bo‘lgan tushunchalarni, fikrlarni va keltirilgan misollarni tushunish va eslab qolishni maksimal osonlashtirishi, oddiy darslikka qaraganda, o‘quv jarayoniga inson miyasining eshinish, ko‘rish, emotsional xotira kabi barcha imkoniyatlaridan hamda kompyuterli tushuntirishlardan foydalangan holda kirib borishi kerak.

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

Elektron darslik (o‘quv qo‘llanma) oddiy qog‘ozli shakldiigi darslik singari muayyan o‘quv fani dasturining barcha asosiy savollarini, mazmun va mohiyatini qamrab olishi kerak. Oddiy darslik bilan qiyoslaganda, elektron darsliklarga qator qo‘shimcha talablar qo‘yiladi: matn varaqlarga bo‘lingan bo‘lishi, tugallagan mazmunli bo‘lakni qamrab olgan, istalgan varaqni xohlagan tartibda ekranga chiqarib berilishi ta’minlangan, matn bezakli tasvirlangan, asosiy qonunlar, formulalar, grafiklar, tasvirlar va boshqalar bo‘lishi kerak.[3] O‘z-o‘zini nazorat qilish maqsadida, bilim oluvchining xohishiga ko‘ra, qo‘yilgan savol masalalarining javoblari, grafiklari, diagrammalarini kompyuter ekraniga chiqarish mumkin. Dastur tarkibi bir qancha nazariyalar blokini, o‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar va ularning javoblanni, test savollari va hisoblash uchun masalalami o‘z ichiga oladi.

Xulosa. Darslarda integrativ yondashuvni qo‘llash, integrasiyalashgan darslarni tashkil etish ishtirokchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni bir fandan ikkinchi fanda qo‘llay olish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sh.A.Abdurahmanova “Elektron ta’lim resurslarini yaratish texnologiyalari” fani bo‘yicha darslik. Toshkent, Ni.jomiy nomidagi TDPU, 2022 y
2. Электронные учебники: рекомендации по разработке, внедрению и использованию интерактивных мультимедийных электронных учебников нового поколения для общего образования на базе современных мобильных электронных устройств. - М.: Федеральный институт развития образования 2012. - 84 с.].
3. Mamarajabov M.E. Raqamlashtirilgan ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish Ped.fan.dok.diss. avtoref. – Toshkent: TDPU, 2022. – 124 b.
4. K.Maycock. A Framework for Adaptive e-Learning.
<http://trap.ncirl.ie/1681/1/kmaycockphd.pdf>



ISSN (E): 2181-4570

CONFERENCE SPECIAL ISSUE

CROSSREF Prefix: 10.66301

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL